

8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:10 (67071)
2016-yil
7-mart

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092



Quyosh ko'kka charaqlab chiqdi,
Yashnab ketdi zamin-u osmon.
Sizni bayram bilan qutlaymiz,
Munis ona, lo'bar qizlarjon!

SH. MAKROMOVICHY o'lgan suratidir

MILLIY QADRIYATLAR MASKANI

*Moziyga nazar
solsangiz, yuksak madaniyat
va boy tarixga ega o'lkada
yashayotganimizni anglaysiz. Milliy
qadriyatlarimiz va an'alarimizni
tiklashda muhim omil hisoblanadigan
davlat muzeylari o'tmishni
o'rganishda bizga asqotadi.*



Ayni kunda mamlakatimizda 450 ga yaqin muzey faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularda saqlanayotgan 2 million 300 mingdan ziyod noyob eksponat, 8 mingdan ortiq moddiy-madaniy meros obyektlari davlat muhofazasiga olingan. Muzeylarni o'rganish, ularni asrashga doir tadbirlar tez-tez tashkil etilmoqda.

Temuriylar tarixi davlat muzeyida muzeylar va madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ularning sayyohlik salohiyatini oshirish va boshqaruvini yanada takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan respublika

ilmiiy-amaliy seminari bo'lib o'tdi. Anjumanda muzey ekspozitsiyalarida Istiqlol davri yutuqlarini keng aks ettirish, mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini muntazam oshirib borish, xalqaro hamkorlik va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish masalalari yuzasidan fikr almashildi. Muzeylar va madaniy meros obyektlarining sayyohlik salohiyatini oshirish maqsadida xorijiy tillarda axborot materiallarini tayyorlash, sohada AKTdan foydalanishni joriy etish masalalari keng muhokama etildi.

OLMOS

Diqqat: yangi tanlov!

Gazetamizning doimiy muxlisarlari!

Go'zal bahor faslining tarovatli kunlarida e'lon qilinayotgan «SOG'LOM BOLA – BOY BOLA» nomli yangi tanlovda qatnashish uchun barchangizni taklif qilamiz.

Jismonan va ma'nan sog'lom bo'lgan insongina haqiqiy boy sanaladi. Bu boradagi fikrlaringizni tengdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.

O'zingiz yashab turgan hudud atrofingizdagi sog'lom turmush tarziga ega oilalar, havas qilsa arziydigan tengdoshlaringiz haqida insho, maqola, mavzuga oid chizilgan rasmlar, shuningdek, o'zingiz haqingizda va yutuqlaringiz bilan tanlovda ishtirok eting (taqdim etilgan ishlar hajmi 2 qog'ozdan oshmasligi lozim).



Sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida yurtimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar haqida ham yozishni unutmang.

G'oliblar 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bayrami arafasida aniqlanib, mutasaddi tashkilotlar tomonidan taqdirlanadi.

Qadrii muxlislar! Tanlovda faol ishtirok eting. Ijodiy ishlaringizni joriy yilning 1-dekabr kuniga qadar quyidagi manzilga yuboring:

Manzil: Indeks 100129, Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Elektron pochta: e-mail: info@tongyulduzi.uz

www.tongyulduzi.uz

Ma'lumot uchun telefon: 244-63-08.

«Sog'lom bola – boy bola» tanloviga deb yozishni unutmang.

INTERNET YOXUD TANGANING IKKINCHI TOMONI

*O'quvchilar axborot olish va uzatish
madaniyatidan xabardor!*

Internet tarmog'i bugungi kunda har sohada kishilarning asosiy hamkori bilan bog'lanishda muhim aloqa vositasi hamdir. Bu, albatta, yaxshi. Biroq tarmoqdan foydalanuvchilarning aksariyatini yoshlar tashkil etishi xavotirlidir. Hozirda turli oqim, yot g'oyalarga targ'ib etuvchi manbalar ham aynan Internetdan joy olgan. O'quvchilarda saytlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish, ularni axborot makonidagi tahdidlardan asrash maqsadida «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi tomonidan «Vatan kelajagi yoshlar qo'lida» ijtimoiy loyihasi amalga oshirilmoqda. Navbatdagi tadbir 1-Toshkent yuridik kollejida bo'lib o'tdi.

«Adolat» sotsial-demokratik partiyasi siyosiy Kengashi tashabbusi bilan tashkil etilgan tadbirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi deputatlari, Uchtepa tumani hokimligi vakillari, o'qituvchilar va yoshlar bugungi kunda o'quvchilar o'rtasida xavfsiz internet muhitini yaratish masalalari xususida fikr almashdilar. Tadbir davomida «Qiyomatga qolgan qarz» nomli hujjatli film namoyish etildi. Ishtirokchilar o'rtasida o'tkazilgan «Internetga in qurgan o'rgimchak» kitobining taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Ushbu kitob orqali kechada ishtirok etgan o'quvchilar axborot hurujlari va «Ommaviy madaniyat»ning salbiy jihatlari bilib olishdi.

– Ming yillik milliy qadriyatlarimizda o'smir qizlarga «O'zingni bokira tut, hayo va iffatingni asra», deyilsa, «Ommaviy madaniyat» qizlarimizni hayosizlikka chorlaydi, ayoldagi

F. ABDUSAMAD qizi

Bugungi kunda yoshlar ma'naviyatiga tahdid soluvchi illatlardan biri shakshubhasiz «Ommaviy madaniyat»dir. Uning farzandlarimiz tarbiyasiga salbiy ta'sirini oldini olish maqsadida yurtimizning barcha ziyo maskanlarida davra suhbatlari, ma'naviy tadbirlar muntazam uyushtirilib kelinmoqda.

«OMMAVIY MADANIYAT» yoshlar ma'naviyatiga tahdid

Kuni kecha Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi Chilonzor akademik litseyida «Ommaviy madaniyat yoshlar ma'naviy kamolotiga tahdid soluvchi omildir» mavzusida madaniy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Tadbir



N. SULTONOV olgan surat

Chilonzor akademik litsey rahbari Mahfuza Murodbekova shogirdlari bilan «Tong yulduzi» gazetasini muhokama qilmoqda.

Chilonzor hokimiyati Xotin-qizlar qo'mitasi raisi Nigora Abdurahimova hamda akademik litsey rahbari Mahfuza Murodbekovalar boshchiligidagi tashkil etildi. Davra suhbatlari davomida yaqinda nashrdan chiqqan «Internetga in qurgan o'rgimchak» kitobining taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Ushbu kitob orqali kechada ishtirok etgan o'quvchilar axborot hurujlari va «Ommaviy madaniyat»ning salbiy jihatlari bilib olishdi.

– Ming yillik milliy qadriyatlarimizda o'smir qizlarga «O'zingni bokira tut, hayo va iffatingni asra», deyilsa, «Ommaviy madaniyat» qizlarimizni hayosizlikka chorlaydi, ayoldagi

onalik baxtini madh etmaydi. Eng achinarlisi shundaki, bu kabi buzg'unchi g'oyalar yoshlarimizning ongiga madaniyatning bir ko'rinishi bo'lib kirib boryapti, – deydi ushbu ta'lim muassasasining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Gulnora opa Muzaffarova.

XV asrda yashab o'tgan mutafakkir olim Husayn Voiz Koshifiy hayo va andisha haqida shunday degan: «Hayo va andisha dunyoda tartib saqlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Hayo yo'qolsa, hech kimda vijdon qolmaydi, dunyoda tartib buziladi, kishilar bir-biriga befarq qaraydilar».

– Afsuski, ommaviy madaniyatning har xil sohaga kirib kelishi hali oq-qorani farqiga bormaydigan, ishonuvchan yoshlarimizni o'ziga ohanraboday tortishga harakat qilayapti, – deya fikr bildirdi ushbu muassasaning 3-bosqich o'quvchisi Nigina Oqmatatova.

Tadbirning badiiy qismida ta'lim maskanining 1–2-bosqich o'quvchilari ijrosida sahna ko'rinishlari va milliy raqslar namoyish etildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, «Ommaviy madaniyat» yoshlarimizning didini o'tmaslashtirib, ularni mustaqil fikrdan, o'zligidan judo qiladi. G'arb jamiyati ma'naviy hayotida ommaviy madaniyat tufayli buzg'unchilik, axloqsizlik, tajovuzkorlik kabi holatlar namoyon bo'lib, tobora xatarli tus olmoqda. Zero, globallashuv jarayoni, zamonaviy kommunikatsiya tarmoqlarining jadal rivojlanishi, insonlararo muloqot kengayib borayotgan bir pallada Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-madaniy me'rosni asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga beqam-u ko'st yetkazib berish, barchamizning muqaddas burchimizdir.

Jamoliddin ABDULLAYEV

TIL BILGAN – ELDA AZIZ

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'z ona tili, balki chet tillarni ham o'zlashtirmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarimiz ingliz tilini qiziqib o'rganishmoqda.



Maktabimizda buning uchun 2 ta maxsus xona tashkil etilgan bo'lib, ingliz tili darslarini zamon talablari asosida o'tish uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Ingliz tili to'gariga o'quvchilar Sh. Mirzayeva, N. Sharipova, E. Narziyeva, D. Yunusova kabi o'qituvchilar tomonidan olgan bilimlarini mustahkamlashmoqda.

Maktabda muntazam ravishda o'tkaziladigan turli kecha va tadbirlarda o'quvchilarimizning ingliz tilida she'r, qo'shiqlar aytishi, sahna ko'rinishlarini namoyish etishlari quvonarli hol, albatta.

Zero, yaratilgan qator qulayliklardan oqilona foydalanib, yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak salohiyatli hamda komil inson bo'lib yetishishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Xushvaqt QODIROVA,
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi
12-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Shoira ijodini o'rganmoqchiman

Maktabimizda vafo va sadoqat timsoli deya ta'riflangan, el ardog'idagi shoira Zulfiyaxonim tavalludining 101 yiliga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Unda shoira she'rlaridan ifodali o'qidik. Tengdoshlarim yod olgan go'zal satrlarni eshitib, shoira ijodiga bo'lgan qiziqishim ortdi. Endilikda ijodkorning she'rlaridan yanada ko'proq yod olishni, asarlarini o'qib chiqishni maqsad qilib oldim.

Salomatoy AHMADOVA,
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi
48-umumta'lim maktabining
6-sinf o'quvchisi

BODOM

(Qatra)

Erta bahor. Quyosh bulutlar ozasidan mo'ralab, nuz sochadi. Kunlar iliq, aziqlardagi suvlazning shazqizab oqishi, qushlarning chug'uzlashi, bolalarning shodon qiyqizig'i, bulazning bazhasida allaqanday sehz bor. Dazaxtlar bazq uzib gullamoqda.

Bodom dazaxtlar ichida eng oldin gulladi. Uning gullari xuddi qoz ostidan chiqqan boychechakdek ko'ngillarga iliqlik, umid baxsh etdi. Shamol bodom gullazini uchizib, yetga qozdek to'shadi. Bundan bodom ma'yus to'rttdi, bizoq tez ozada gul o'znida mevalar tuguni paydo bo'ldi. Bodom dazaxti ulazni avaylab, yashashda davom etmoqda.

Guli Ra'no HAMIDULLAYEVA,
Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi 6-umumta'lim maktabining
7-«A» sinf o'quvchisi

Onangizning ko'ngil quvonchi



8-mart – hikmatlarga boy buvijonlaru munis onaxonlar, lobar opa-singillarimiz quchog'i gullarga to'ladigan kun. Dunyo ahlini qadim-qadimdan ayollarga bo'lgan yuksak ehtiromi bilan lol qoldirib kelayotgan xalqimizning bu fazilati dillarda va tillarda doston. Bu ezgulikning ildizi nihoyatda chuqurligi bilan kishini hayratga soladi.

Hazrat Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» tazkirasini varaq-lar ekanman, onalarga bo'lgan hurmatning nechog'li balandligidan ko'nglim iftixorga to'ldi. Buyuk ajdod-

larimiz ibrati necha-necha zamonlar o'tsa-da, o'z zalvorini yo'qotmay, quyosh kabi olamni nurafshon etib turaveradi. Bu tuyg'ular sizning ham qalbingizdan o'rin olishini istadim. Tazkiradan joy olgan Shayx Mo'min Sheroziyning onalarga bergan yuksak bahosini esa hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan bir bor amin bo'ldim. Keling, Navoiyning ushbu hikoyatini birgalikda o'qiylik.

Zamonasining peshqadam ulamolaridan biri bo'lgan Ismoil Dabbos Haj niyatida yo'lga chiqib, Sheroz shahriga yetdi. Bir masjidga kirganida ko'zi Shayx Mo'minga tushdi. U ulug' zot kiyimiga yamoq solib o'tirardi. Salomlikdan so'ng mehmondan so'radi:

- Ne niyat bilan safarga chiqding?
- Haj qilish niyatim bor.
- U zot yana so'radi:
- Onang bormi?
- Bor.
- Unda izingga qaytib, onangning

xizmatida bo'l.

Bu gap Ismoil Dabbosga malol kelgandek bo'ldi. U kishining chehrasida allaqanday o'zgarish sezildi. Bu esa buyuk zotning nazaridan chetda qolmadi.

– Nega to'lg'onasan, – dedi u ma'yus ohangda. – Men bosh yalang, oyoq yalang, yolg'iz va ozuqasiz ellik marta Haj qilganman. Bu amallarim savobini senga beraman. Sen onangning ko'ngil shodligini menga bera olasanmi?..

Aziz o'quvchi, nihoyatda ta'sirli so'zlar, shunday emasmi? Haqiqatan ham onaning ko'ngil shodligi hamma narsadan ustun. Aslida bunday shodlikni baxsh etish sizning ham qo'lingizdan keladi. Maktabdan a'lo baholar olib keling. Namunali xulqingiz bilan barchaga o'rnak bo'ling. Shunda onangiz quvonchini ko'rasiz. Bu esa hayotingizdagi eng nurlilahzalar bo'lishini unitmang.

Yusuf ABDULLAYEV

MUHOKAMA UCHUN MAVZU

«UYQUCHI».. BOLALAR

Donishmand bobolarimiz uyquning sakkiz soatdan oshig'i insonga ziyon keltirishini ta'kidlashgan. «Qobusnomada» Kaykovus uyquni «kichik o'lmidir» deb yozadi. Shunday ekan, har narsaning me'yorida bo'lgani yaxshi.

O'lkamizga bahor kirib keldi. Shukurki, bog'larda tun-u kun bulbullarning navosi tinmaydi. Borliqqa tikilib insonning bahri dili ochiladi. Tabiat bilan sirlashgning, uning jamolidan uzoqlashgning kelmaydi.

Bugun bobom aytganidan ham ertaroq uyg'ondim. Qushlarning chug'urlab bir-birini bahor bilan olqishlayotganidan zavqlandim. Bemor ko'rish uchun to'rxaltamni ko'tarib, avtobusga chiqdim. Mashina ichi tirband. Yangi kun yo'lovchilarga o'zgacha shukuh bag'ishlaydi. Avtobusda ogohlikka da'vat etuvchi yozuvga ko'zim tushadi. «Istiqloq bergan ulug' ne'matlardan unumli foydalanaylik.

Yurtimizning tinchligi siz-u bizning qo'limizdadir. Avtoulovda shubhali buyumlarini ko'rganingizda quyidagi raqamlarga xabar qiling...» Birdan sergaklanib atrofga alanglayman. Mendan bir qadam narida yoshi ulug' otaxon oyoqda tik turibdi. Uning yonida yoshi oltmishlardan o'tgan onaxon ham bor.

Ammo ne ko'z bilan ko'raysi, endigina mo'ylabi sabza urgan ikki o'smir yigitcha qo'llarida telefon. Quloqlariga eshitgichni tiqib olganicha ko'zlarini chirt yumib, o'rindiqda o'zini uxlaganga solib ketishyapti. Ular aftidan tevarak-atrofiga nima bo'layotganini kuzatishni ham, eshitishni ham xohlamasdi. Bu hol ko'nglimni xira qildi. Chindan ham bu ikki o'smir uyqudan qolganmikan yoki kasalmi, degan o'yg'a bordim. «Bolam, tur otangga joy ber», desam ham qizit etishmadi. Otaxon muloyim jilmayib: – Qo'ying, dam olishsin, – dedi. Nima qilay, bunday xunuk holatni kuzatib yurishga sabrim yetmay, ularning uyqusini buzdim...

Aziz o'quvchi! Siz ham bunday holatga guvoh bo'lsangiz, hech ikkilanmay mug'ombir «uyquchi» bolalarni uyg'otib yo'qing. Toki, ular hushyorlik davr talabi ekanini unutishmasin.

A. KARIMOV



BU BOG'LARDA BAHOR GULLAYDI

Kuni kecha Respublika bolalar kutubxonasi shoiri tavalludiga bag'ishlab «Bahor kuychisi» deb nomlangan adabiy kecha o'tkazildi. Unda «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zosi, yosh shoiri D. Abduraimova, Yashnobod tumanidagi 244- va 61-umumta'lim maktabi o'quvchilari va kutubxona faollari ishtirok etdi.

O'zbekiston xalq shoirasi, davlat arbobi, o'zbek adabiyotining taniqli namoyandasi Zulfiya tavalludining 101 yilligi mamlakatimiz bo'ylab keng nishonlanmoqda.

Yaqinda poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 302-umumta'lim maktabida «Zulfiya bahor kuychisi» mavzusida adabiy-badiiy kecha bo'lib o'tdi. F. Tursunmetova rahbarlik qilayotgan ushbu ta'lim muassasasining faollar zaliga mehmonlar – O'zbek Milliy akademik drama teatrlarining xalq artistlari Yoqub Ahmedov, Yodgor Sa'diyev, xizmat ko'rsatgan artistlar Tolib Mo'minov, Sharofiddin Muzropov, Nigina Anorboyevalar tashrif buyurishdi.



Dastlab kutubxona direktori Doniyor O'rolov so'zga chiqib, ushbu tadbirni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad shoiraning serqirra ijodi haqida o'quvchilarga yanada kengroq ma'lumot berish, Zulfiyaxonim ijodiga oid adabiyotlar bilan ularni yaqindan tanishtirishdan iborat ekanini aytib o'tdi.

Tadbirida 244-umumta'lim maktabi o'quvchilaridan Sevara Norbo'tayeva, Sarvinoz Abdushimova, Durdona Nasridinova, Diyora Saydullaeva talabalar Zulfiya ijodiga mansub she'rlarni ifodalari o'qib berishi yig'ilganlarga manzur bo'ldi.

Sh. KAZAKBAYEV

Anjumanda Zulfiya ijodidan namunalari o'qildi, kuy-kengroq ma'lumot berish, qo'shiqlar kuylanib, shahar namoyish etildi.

O'quvchilar o'rtasida «Bahor», «Zulfiya ijodi» mavzusida diktant, bayon, insho, buklet, albom va devoriy gazetalar bo'yicha tanlovlar tashkil etildi. Unda faol ishtirok etgan o'quvchilar Yunusobod tuman XTMFMTE bo'limi hamda maktab ma'muriyati tomonidan rag'batlantirildi.



Muzaffar AHMEDOV

YASHNAYOTGAN NIHOLLAR

O'lkamizda bahor! Bu yil qish iliq kelgani bois, daraxatlar allaqachon gulga kirdi.

Bobodehqonlar ham ekin-tikin ishlarini boshlab yuborishgan.

Shahar ko'chalarini bo'ylab yurarkanmiz, atrofga ko'chatlar o'tqazayotgan o'quvchilarga ko'zimiz tushdi. Hudud atrofini manzarali va mevali ko'chatlarga burkayotgan yoshlar poytaxtimizdagi A. Xlebushkina nomidagi 22-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ekan.

«Har bir yoshga bir nihol» shiori ostida tashkillashtirilgan ekologik aksiya doirasida tarbiyalanuvchilar mutaxassislar tomonidan atrof-muhit musaffoligi, inson salomatligini asrashda yashil hududlarning ahamiyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishdi. «Ekosan» xalqaro xayriya jam'armasi vakillari tarbiyalanuvchilarga yurtimizning so'lim, jannatmonand tabiati aks ettirilgan kitoblar va foto-plakatlarni sovg'a qilishdi.

Mehribonlik uyi hamda O'zbekiston Ekologik harakati Toshkent shahar hududiy bo'linmasi hamkorligida tashkillashtirilgan ushbu aksiya yoshlarning ekologik madaniyatini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim sanaladi.

NURBEK

Yaqinda «Barkamol avlod» Respublika bolalar texnik ijodiyot markazida «E'tirof – 2016» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.

MUNOSIB TANLOV

Xadicha Zokirova rahbarlik qilayotgan mazkur markazda 19 yoshli bo'yicha 24 ta to'garak faoliyat yuritmoqda.

Ushbu to'garaklarda hunar o'rganayotgan o'quvchilardan har bir yoshli bo'yicha 3 nafardan saralab

– Men Shahzod Abduraimov, Chilonzor tumanidagi 217-umumta'lim maktabining 7-«A» sinfida o'qiyman, – deydi ishtirokchilardan biri. – «Yosh dasturchi» to'garagida o'rtoqlarim bilan ustozimiz Dilobar Musajonovadan «Ekel», «Bloknot», «Vord» va shu kabi turli dasturlarda ishlashni o'rganib oldik. Bugungi bellashuvda esa men «Fotoshop» dasturida bayram tabriknomalarini tayyorladim.

281-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi Mahfuza Abdurahimova ikki yildan beri «To'qish» to'garagiga qatnar ekan. Shu vaqt ichida u ustoz Gavhar

KITOBLAR FESTIVALI

«Sog'lom ona va bola» yili munosabati bilan o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kutubxonlik madaniyatini oshirish, kutubxonaga o'quvchilarni yanada kengroq jalb etish maqsadida Marg'ilon shahridagi 1-umumta'lim maktabi axborot resurs markazida «Kitobxonlar festivali» o'tkazildi.

Tadbirida o'quvchilar Prezidentimizning «Ona yurtimiz baxt-u iqbolini yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir» nomli asari taqdimotida qatnashdilar. So'zga chiqqanlar asarning mazmun-mohiyati, unda mamlakatimizning mustaqillik yillarida bosib o'tgan tarixiy yo'li teran tahlil qilganligini bayon etdilar.

Festival davomida «Kitobxon oila» nominatsiyasida g'oliblikni matematika o'qituvchisi Dilxumor Toshmatova, «Eng yaxshi kitobxon» nominatsiyasi bo'yicha 6-«A» sinf o'quvchisi Fozila Ne'matjonova g'oliblikni qo'lga kiritdi. 7-«A» sinf o'quvchisi N. Rahmatullayeva «Men sevgan ertak qahramoni» mavzusidagi rasmlar tanlovi g'olibasi bo'lishga erishdi.

Muhammadjon MAHMUDOV, Marg'ilon shahri

olinganlari ishtirok etishdi. «Yosh doirachi»larning sho'x gijbang sadori tadbirning ochilishiga o'zgacha zavq bag'ishladi. Saralab olingan ishtirokchilarga 30 daqiqa ichida bajarishlari uchun ijodiy topshiriq berilib, ularning ishlari hakamlar hay'ati tomonidan 10 ball mezonida baholandi. Eng yuqori natijaga erishgan o'quvchilar «E'tirof – 2016» tanlovining diplom va esdalik sovg'alarini, keyingi o'rin sohiblari esa rag'batlantiruvchi faxriy yorliq bilan taqdirlanishdi.

Qiziqarli kechgan anjumanda ona Vatani, baxtli bolalikni tarannum etuvchi she'r, qo'shiqlar o'zbek, ingliz tillarida jarangladi. Sho'x raqslar ijro etildi. Shuningdek, «Turon» sport jamoasi a'zolarining ko'rgazmali chiqishlari yig'ilganlarga birdek manzur bo'ldi.



opadan qalpoq, sharf, ko'ylak, nimcha, paypoq to'qishni o'rganib olibdi. Uning qo'lidan chiqqan bejirim liboslarga qarab, havasingiz keladi.

«Barkamol avlod» markazida o'tkazilgan tadbirdan katta taassurotlar olib qaytar ekanmiz, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazib, hunar o'rganayotgan o'quvchilar safi yanada kengayishini chin dildan istadik.

D. HOTAMOVA

Lesson 77

MY MOTHER ...
(Mening onam ...)

You filled my days with rainbow lights,
Fairytale and sweet dream nights.
A kiss to wipe away my tears,
Gingerbread to ease my fears.

You gave the gift of life to me,
And then in love, you set me free.
I thank you for your tender care,
For deep warm hugs and being there.



Grammar corner

PHRASAL VERBS
(Iboralar)

Up

- Wake up = stop sleeping:**
- I often wake up late.
- Get up = get out of bed:**
- What time do you usually get up in the morning?
- Grow up = become an adult:**
- What does your son want to do when he grows up?
- Speak up = speak more loudly:**
- I can't hear you. Can you speak up a bit?
- Wash up = wash the dishes, plates etc. after meal:**
- After we finished eating, we washed up.
- Hurry up = go more quickly:**
- Hurry up! We haven't got much time.
- Give up = stop trying:**
- I know it's difficult but don't give up. Keep trying.


DIALOGUE

Madina: - Hello Botir. How are you?
Botir: - Hi, thanks. And you?
M: - Where are you going?
B: - To buy a present for my grandmother.
M: - I also wanted something. What are you going to buy?
B: - I'm going to buy beautiful colorful tulips.
M: - Oh, best idea, may I go with you?
B: - Yes, of course. Let's go.



Prepared by Dinora SHAKIROVA

MOTHERS DAY CROSSWORD



- Across**
2. A short name for Mother.
 5. A present.
 7. How about some ... and kisses.
 8. The season is ...
 9. She might plant these in her mom. garden.
- Down**
1. We might go ... Grandmother.
 3. How about some hugs and ...
 4. We say ... you for the gifts.
 6. Put in an envelope to send to

AMUSING POEM


Write the marked words to these empty boxes and find the key word.

Qo'lga oldim **xarita**,¹
Izlay boshladim **paxta**.
Ko'rinmas hatto **poyezd**,
Uy ham yo'q, bu-chi, soxtal!

Boshim og'rib ichdim **choy**,
Kamalak bormi hoynahoy?
Globusdagi tog'lar-chi,
Xuddi o'xshar **palov** oy!

Samalyot qanday uchsa,
Yer shari dumaloq bo'lsa?
Kabutar qanday uchar,
U qanday ko'kni quchar?

Sirlarga boy bu olam,
Bir qog'ozga jam bo'lgan!
Belgili so'zning nomin yozing,
Kalit so'z hosil bo'lgan!



Rohilabonu G'O'CHCHIYEVA,
the pupil of 9th form school number 71 in Dehkonobod district,
Kashkadarya region

A GOLDEN EGG
(Oltin tuxum)



Once upon a time there was an old woman and man. They had a spotted hen.
One day their hen laid an egg but it wasn't ordinary, it was a golden egg. However the old man tried hard he couldn't break the egg. The old woman also couldn't break it.
When mouse was passing his tail touched it. The egg fell down and it was broken. The

old woman and man saw it, both of them cried.
At that time the hen clucked and said:
- Don't cry grandpa, don't cry granny.
I will lay another egg for you, but not golden just an ordinary one!

Translated by Akbar AMINJONOV,
the pupil of 5th «D» form of state secondary specialized boarding school №8 in Gijduvon district, Bukhara region

IS IT TRUE?

- Write the sentences rightly.
1. I get up/ at/ 7 o'clock/ usually. I usually get up at 7 o'clock.
 2. I/hard/work/always. ...
 3. I/my/do/always/homework. ...
 4. We/words/sometimes/translate. ...
 5. I/poems/learn/by/heart. ...
 6. Play/Sundays/on/I/football. ...
 7. Time/comes/on/always/she. ...

Dilnoza TOG'AYEVA,
the pupil of school number 43 in Pakhtachi district,
Samarkand region

DO YOU KNOW THIS?
(Bilasizmi?)

Can you find the word «Mother» in all these different languages?

1. Uzbek -
2. Italian -
3. Russian -
4. German -
5. French -
6. Korean -
7. Chinese -
8. Hindi -



Umida G'OFUR qizi

KO'NGILGA KO'CHDI GULZOR...



Maysalar shivirlab, qirlar bag'rini bezashga tushdi. Anhorlar yosh bolalar kabi beg'ubor qiqiraydi. Oppoq gulga kirgan daraxtlar atrofida parvona bo'lgan bolarilarning quvonchini izoblash qiyin. Tabiat rangin daftarini varaqlaydi. Yurtimizga bahor keldi. Xushxon qushlarning navosidan ko'nglimiz yayraydi. Nazarimda, go'yo butun borliq she'r yozayapti...

Respublikamizning turli go'shalaridan oppoq kabutar yanglig' qanot yozib kelayotgan dilnomalardan bahor nafasi ufuradi. Bepoyon qirlar bag'rida o'zlarining burgutcha varraklarini uchirayotgan bolalarning quvnoq qiyqirig'i purviqor tog'larni uyg'otib yuborgandek bo'ladi. Ha, bahor yer-u osmonga jon ato etadigan nurafshon fasl. Qaldirg'ochlar ayvonimizga charx urib chiqqanidan bilamizki, ular xonadonimizga rizq-u ro'z, fayz-u barokat ato etishadi. Olam yam-yashil libosiga burkanganda, unga mahliyo bo'lmagan yurak yo'q. Bu yog'i bahor, gulzorlar ko'ngilga ko'chadi. Borliqqa mahliyo bo'lib yashash zavqi qalbingizni sira tark etmasin.



TENGI YO'Q GULIM

Qarang, go'zallikdan yosharar borliq, Kuzakda keksayib boradur dunyo. Ko'nglimdagi bahor sengadir bog'liq, Gullari atri-la sochadur ziyo.

Ong-u shuurimga shamday nur berar, Bulbullar kuyida yangrasa isming. Iliq xotiramdan umid dur terar, Ko'z o'ngimda paydo bo'lganda isming.

Nargiz guli kabi latofatliyan, Mayin ovozingdan yorishar dilim. Ko'zlaring qa'rida muhabbat yonar, Ey, mening dunyoda tengi yo'q gulim.

Feruza EGAMBERDIYEVA,
poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi
164-umumta'lim maktabining 9-«V» sinf o'quvchisi



AXTAMQULI



VATANIM

To'lib-toshgan suvlarga,
Ham kuylovchi qushlarga,
Ko'kni quchgan tog'larga,
Makon bo'lgan Vatanim.

Baxt keltirib do'stlarga,
Chiroy bergan gullarga,
Orom berib dillarga,
Makon bo'lgan Vatanim.

Baland-baland uylarga,
Tengsiz qo'shiq-kuylarga,
Bel bog'lashib to'ylarga,
Makon bo'lgan Vatanim.

Ahliddin QURBONOV,
Surxondaryo viloyati,
Sariosiyo tumanidagi
16-umumta'lim maktabining
6-«A» sinf o'quvchisi



**SIZ
KO'NGILNING
CHIROG'I**

Siz mening oliy baxtim –
Baxtdan yaralgan taxtim.
Tildan chiqqan ilk so'zim,
Borlig'im – onajonim.

Siz ko'zimning qarog'i,
Siz ko'nglimning chirog'i.
Qalbda mehr bulog'i,
Azizim – mehribonim.

Mushtariybonu ANVAROVA,
Farg'ona viloyati, Quva
tumanidagi 64-umumta'lim
maktabining 4-«A» sinf
o'quvchisi



PARVOZIM

Dildan yozib dasturxon,
She'rlar bitay bir jahon.
Vatanim madhin kuylab,
Dunyoga qilay doston.

Olam ichra yangrasin,
Olislarda ovozim.
Bahor bilan qo'shilib,
Ketsin mening parvozim.

Mahliyo SHODIYEVA,
Jizzax shahridagi 8-umumta'lim
maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi



**MA'NAVIYAT
XAZINASI**

Xayolimni o'g'irlagan,
She'rlar yozishga undagan.
Yuragimdan joy olgan ham –
Ma'naviyat xazinasi.

Har bir satri cheksiz olam,
She'rlaridir qalbingga jam.
Olsa ko'nglim bo'lmaydi kam –
Ma'naviyat xazinasi.

Hilola ASADOVA,
Navoyi viloyati, Uchquduq
tumanidagi 10-umumta'lim
maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

IJODGA YO'G'RILGAN UMR

Ayol - go'zallik timsoli, metindek mustahkam irodaga ega nozik xilqat. Bugun sizlarga hikoya qilmoqchi bo'lgan qahramonimiz biz uchun nihoyatda qadrlil ijodkor. Ishga bo'lgan munosabati, hamkasblariga mehr-oqibati tufayli e'zoz topgan jurnalist Muhabbatxon Xo'jamurodova ilk ish faoliyatini «Tong yulduzi» gazetasida musahhihlikdan boshlagan edi.

Muhabbat opangiz, mana o'n ikki yildirki, «Sog'lom avlod» gazetasida katta muxbir vazifasida faoliyat yuritib kelmoqda.

Ko'hna va hamisha navqiron Xorazm vohasining Urganch shahrida dunyoga kelgan qizaloq o'rta maktabni a'lo baholarga bitirdi. Adabiyot, ijodga bo'lgan havas uni poytaxt sari yetakladi. O'zMU jurnalistika fakultetini muvaffaqiyatli yakunladi.

U nafaqat izlanuvchan jurnalist, balki iste'dodli shoira hamdir. Ko'p yillik ish tajribasiga ega qalamkash sifatida yosh ijodkorlarga yaqindan ko'mak berib kelmoqda. Dolzarb mavzudagi turli maqolalari bilan ko'rik-tanlovlarda qatnashib, sovrindorlar safidan joy olgan. Muhabbat Xo'jamurodova Xalq ta'limi vazirligining Ta'lim markazi bilan hamkorlikda maktab dasturi

asosida tuzilgan «Salomatlik darslari», «Sog'lom avlod asoslari» darslari uchun bir qancha maqolalar uyushtirib, gazeta sahifalarida chop etilishiga munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

Yaqinda adibaning navbatdagi «Mehr qolur» nomli yangi kitobi nashrdan chiqdi. Unda jurnalistikada suyagi qotgan qalam sohibasining badiiy ijod va publitsistik janrlardagi sara hikoyalari, she'r, maqola va ocherklari o'rini olgan. Pedagoglik kasbida 40 yillik ish tajribasiga ega 75 yoshli Jonibek aya qizi yozgan har bir maqola-yu nashr ettirgan

**SHAFTOLI
GULI**

Bog'imizning go'zali,
Gullabdi-ku shaftoli.
Yal-yal yonib turibdi,
Yoqut shafaq misoli.

Qarang, juda maftunkor,
Novdada qizil shabnam.
Uning bu go'zalligini,
Hech narsaga alishmam.



kitobining talabchan ilk o'quvchisidir. Zero, farzandning baxt-iqboli, erishgan martabasi, yutuqlari-yu muvaffaqiyatlari onaning chin dildan qilgan duolari ijobatidir.

«Tong yulduzi»ning ko'pming sonli o'quvchilari nomidan yaqin kunlarda 55 yoshini qarshilash arafasida turgan Muhabbat opaga sihat-salomatlik, ijodiy muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Dilorom MUHAMMADJON



Gazetamiz orqali iqtidorli tengdoshingiz, yunon-rum kurashi bo'yicha II o'smirlar olimpiada o'yinlari g'olibli Ilhomjon Bahromov erishgan g'alabalar haqida ko'p bora o'qigansiz. Uning sportda qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlari esa havasizingizni uyg'otgan bo'lishi, tabiiy.



POLVONLARIMIZNING QO'LI BALAND KELDI



To'g'ri-da, hali yosh bo'la turib, ona Vatan sharafini xalqaro arenalarda munosib himoya qilishdek mas'uliyatli vazifani zimmaga olish barchaning ham qo'lidan kelavermaydi. Qarangki, Ilhomjon bu g'alabalar bilan aslo to'xtab qolmoqchi emas. U yaqinda poytaxtimizdagi Olimpiya zaxiralari kollejida yunon-rum kurashi bo'yicha yoshlar o'rtasida aka-uka Ro'ziqulovlar sovrini uchun bo'lib o'tgan xalqaro musobaqada ham o'ziga bildirilgan ishonchni to'la oqlab, yakunda oltin medalni qo'lga kiritdi. Ushbu turnir yuqori saviyada tashkil etilib, unda yurtimiz va qo'shni Qozog'iston mamlakatidan kelgan 187 nafar eng sara yosh polvonlar g'oliblik uchun gilamda bel olishdilar. Ayniqsa, yengil vazn toifasidagi kurashchilarning o'zaro bellashuvi muxlis-u mutaxas-

sislarga bir olam zavq ulashdi. Quvonarlisi, musobaqada yosh kurashchilarimiz o'zlarining bor mahoratlarini namoyish etib, yakunda barcha vaznlar bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdilar. — Ushbu musobaqadagi ishtirokim orqali yana bir bor o'z imkoniyatlarimni sinovdan o'tkazib, oldindagi yirik xalqaro musobaqalarga tayyorgarlik ko'rdim, — deydi iqtidorli yosh polvon Ilhomjon Bahromov. — Ishonamanki, bu turnirda orttirgan tajribam kelajakda menga, albatta, asqotadi. Yosh polvonlarimizga galdagi nufuzli musobaqalarda omad yor bo'lishiga tilakdoshmiz.

Xabaringiz bo'lsa, shu yilning boshida tennis bo'yicha dunyoning yirik to'rt musobaqasidan biri «Australian open» turnirida yosh va umidli raketka ustasi Jo'rabek Karimov o'smirlar o'rtasidagi bahslarda finalga qadar yetib borgan edi.

JO'RABEK O'Z SO'ZINI AYTDI

O'tgan hafta u Ros-siyaning Qozon shahrida bo'lib o'tgan yirik musobaqada ham muvaffaqiyatli ishtirok etib, yakunda bosh sovrinni qo'lga kiritdi. Turnirda birinchi raqam ostida tasniflangan hamyurtimiz o'ziga ro'baro' bo'lgan barcha raqiblarini mag'lubiyatga uchratib, muhim reyting ochkolarini jamg'arishga erishdi. Jo'rabek hal qiluvchi bahsda turnirning uchinchi raketkasi rossiyalik Lev Kazakovga qarshi kortga chiqdi. Tennischimiz ushbu qarama-qarshilikda raqibiga hech qanday imkoniyat qoldirmadi va yakunda 6:4, 6:2 hisobidagi g'alabani qo'lga kiritdi.

Sa'dullo TURSINOV

«Kamolot» malikalari musobaqasi



Aziz o'quvchi! E'tibor bergan bo'lsangiz, yil taqvimida biror oy yo'qki, mamlakat chempionati yoki xalqaro turnirlar belgilanmagan bo'lsa! Ushbu musobaqalar esa, o'z navbatida, yangidan yangi sportchilarni kashf etmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda qizlarni sportga jalb etish borasida olib borilayotgan ishlar samarasi ularning bu sohada qo'lga kiritayotgan yutuqlarda o'z aksini topmoqda.

Badiiy gimnastika bo'yicha sportchi-qizlarning erishgan zafarlari ushbu turning yurtimizda keng ommalashib borayotganini ko'rsatadi. «Kamolot» malikalari musobaqasi poytaxtimizda joylashgan «Kamolot» sport majmuasida bo'lib o'tdi. Badiiy gimnastika bo'yicha o'tkazilgan mazkur musobaqada turli hududlardan kelgan 100 ga yaqin qizlar bellashdi. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Toshkent shahar Kengashi tomonidan tashkil etilgan musobaqada Munisa Mahmudjonova, Mushtariy Shonazarova, Kamola Qobilbekova, Omina Usmonova, Aziza Jo'raboyeva, Laziza Mirzakarimova, Diyora Hamidullayeva hamda Liza Goroshko shohsupaning eng yuqori pog'onasini egalladi. **Ulug'bek SAIDOV**

G'OLIBLAR ANIQLANDI

Poytaxtimizda bo'lib o'tgan 64 katakli shashka bo'yicha Respublika chempionati ham yangi iste'dodlarni yuzaga chiqardi. Klassika yo'nalishi bo'yicha sirdaryolik Alisher Ortiqov g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, jamoadoshi Samandar Kalonov rapid, Andijondan Abduqodir Toshmirov blits yo'nalishida birinчилardan bo'lishdi. Qizlar o'rtasidagi bahslarda sirdaryolik Mohinur Umarova, Vasiya Berdiqulova hamda buxorolik Sarvinoz Hasanova g'olib bo'ldi. O'smirlar o'rtasida kechgan bellashuvlarda buxorolik shashkachilar Mirzohid Rafiyev va Saidqosim Aliyev, Surxondaryodan Ramazon Xudoynazarov g'olib bo'ldi. Qizlar o'rtasida Sirdaryodan Shahzoda Tursumurodova va farg'onalik Niara Abdishayevaga teng keladigani topilmadi. Musobaqa g'oliblari Ulan-Batorda o'tkaziladigan Osiyo kubogi musobaqalari hamda Bolgariyada bo'lib o'tadigan jahon chempionatida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

Shukrulla G'ULOMOV



Kuni kecha poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 8-umumta'lim maktabida «Kamolot» shaxmat taxtasi IX an'anaviy respublika bosqichi o'tkazildi. Turnir nizam talablari-ga asosan (8 dan 19 yoshgacha) bo'lganlar o'rtasida o'tkazilib, g'olib deb topilgan o'g'il bolalardan 5 nafari hamda 5 nafar qizlar Toshkent shahar bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Aytish kerakki, tumirdagi har bir bahs keskin va murosasiz tarzda o'tib, muxlislarga bir olam zavq ulashdi. Ayniqsa, 285-umumta'lim maktabi o'quvchisi Azizbek Saidazimov, 300-umumta'lim maktabi o'quvchisi Laziza Razzoqova, 277-umumta'lim maktabi o'quvchisi Mohinur Mengliyevaning dona surishlariga muxlis-u mutaxassislar yuqori baho berdi. — Musobaqaga ustozim bilan jiddiy tayyorgarlik ko'rdim, — deydi tumir g'olibi, tumandagi 6-umumta'lim maktabi o'quvchisi Begzodjon Abdumajidov. — Kelajakda Rustam Qosimjonovga o'xshab, shaxmat bo'yicha jahon chempioni bo'lmoqchiman. Yakunda barcha yosh toifalarida g'oliblar aniqlanib, ularga «Kamolot» YOIH Sergeli tuman Kengashi va Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

Shavkat KAZAKBAYEV



SIZNING KITOB JAVONINGIZGA

Ushbu rukn orqali berib borilayotgan ushbu kitob orqali sizlar quvnoq qahramonlar bilan birgalikda «Bilimlar mamlakati»ga sayohatga chiqib, g'ayrioddiy voqealarning guvohi bo'lasiz. Uch quvnoq og'ayni – mushukcha, ayiqcha va kuchukcha jonivorlar va o'simliklar, xalqlar va mamlakatlarning o'ziga xos hayot tarzi bilan yaqindan tanishtiradi. Kitobdan, shuningdek, mustaqil mutolaa uchun ajoyib ertaklar, o'yinlar, topishmoqlar ham o'rin olgan.

BOLALARGA MUNOSIB TUHFA

Cho'lpon nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi tomonidan nashr etilgan ushbu kitob orqali sizlar quvnoq qahramonlar bilan birgalikda «Bilimlar mamlakati»ga sayohatga chiqib, g'ayrioddiy voqealarning guvohi bo'lasiz. Uch quvnoq og'ayni – mushukcha, ayiqcha va kuchukcha jonivorlar va o'simliklar, xalqlar va mamlakatlarning o'ziga xos hayot tarzi bilan yaqindan tanishtiradi. Kitobdan, shuningdek, mustaqil mutolaa uchun ajoyib ertaklar, o'yinlar, topishmoqlar ham o'rin olgan.

S. TURSINOV tayyorladi



RASMLARDA BAHOR AKSI

Bahor kishiga o'zgacha kayfiyat, shukuh bag'ishlaydi. Ko'klamoy bo'lajak shoir-u rassomlarga xushkayfiyat, ilhom ulashishda davom etayotgani Sizlardan kelayotgan maktublardan ma'lum. Quyida yurtimizning turli viloyatlaridan qanot qoqib kelgan maktublar orasidan chizilgan rasmlarni tanlab olib, hukmingizga havola qilmoqdamiz.



Obidjon NE'MATOV, Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 6-«G» sinf o'quvchisi



Mavjuda TURSUNBOYEVA, Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

KRIPTOGRAMMA

Quyida ta'riflanib, raqamlarda ifodalangan kalit so'zlarni toping.

1. Atoqli shoir Adulla Oripov she'ri – 16, 5, 4, 12, 16, 5.
2. Kichikintoylarni tarbiyalovchi ayol – 8, 5, 4, 11, 4.
3. Taniqli teatr aktrisasi, xonanda – 9, 4, 17, 2, 17, 4 Oxunova.
4. Sog'liqni saqlashga asos hisoblanuvchi sport turi – 11, 2, 3, 5, 4, 1, 18, 2, 13, 4.
5. Tengdosh, do'st ayollar – 7, 6, 11, 16, 5, 4.
6. Sport anjomi – 18, 14, 15.
7. Xonadon binosi – 6, 10.

Endi kalit so'zlari javoblari orqali shakldagi muammonomani hal eting.



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

Bahrom AKBAROV

(Davomi. Boshi 6-sonda)

HAYVONOT OLAMI ALIFBOSI

<p>«X»da Xo'roz maqtanchoq, lshonmasang ko'rib boq.</p>	<p>«Y»da Yo'lbars ko'ribman, Katta mushukmi, debman.</p>
<p>«Z»da Zaxcha, Zag'iz'g'on, Uchdilar Zebra tomon.</p>	<p>«O'»dan topsangiz O'rdak, Tumshug'i qizil demak.</p>
<p>«G'»da sayr etar G'izol, G'ozlar ham bunga misol.</p>	<p>«K»da pismi q Kalamush, Chiqarmas aslo tovush.</p>

(Davomi bor)

YOQUBBEK chizgan rasmlar

7-mart 2016

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonilla YUNUSOV, Dilshod KENJAYEV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEVA, Feruza JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

Manzilimiz:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taqoq. ISSN 2010-6092 Adadi – 51537 Buyurtma – S 5333